

**Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi**  
**FarDU Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti**  
[\*\*madinabonumuhammadjonova07@gmail.com\*\*](mailto:madinabonumuhammadjonova07@gmail.com)

---

## **TALABANING INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASINI YARATISHDA TYUTORNING VAZIFALARI**

**ANNOTATSIYA:** Yurtimiz oliy ta'lim tizimiga joriy e'tilgan "tyutor"lik lavozimiga ega kadrlarning ham o'qituvchi pedagoglar singari o'z ish hujjatlari va ularni olib borish uslublari mavjud. Huddi shu hujjatlar sirasiga kiradigan tyutorning talaba uchun yaratadigan individual ta'lim trayektoriyasini tuzish va uni tayyorlashgacha bo'lgan vazifalari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda talabaning individual ta'lim trayektoriyasi na'munasi mazkur maqolada batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tyutor, trayektoriya, ta'lim shakli, individual ta'lim, diagnostika, so'rovnoma, tizimlashtirish.

---

## **ЗАДАЧИ ТЮТОРА ПО СОЗДАНИЮ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАЕКТОРИИ СТУДЕНТА**

**АННОТАЦИЯ:** Кадры с должностью «воспитатель», введенные в систему высшего образования нашей страны, имеют свои трудовые документы и методы их проведения, так же, как преподаватели и педагоги. Информация о задачах тьютора по созданию индивидуальной образовательной траектории обучающегося и ее подготовке, а также образец индивидуальной образовательной траектории обучающегося, включенные в данные документы, подробно изложены в данной статье.

**Ключевые слова:** Наставник, траектория, форма обучения, индивидуальное обучение, диагностика, анкета, систематизация.

---

## **TASKS OF THE TUTOR IN CREATING THE STUDENT'S INDIVIDUAL EDUCATIONAL TRAJECTORY**

**ABSTRACT:** Personnel with the position of "tutor" introduced into the higher education system of our country have their own work documents and methods of conducting them, just like teachers and pedagogues. Information about the tasks of the tutor to create an individual educational trajectory for the student and its preparation, as well as a sample of the student's individual educational trajectory, which are included in these documents, are described in detail in this article.

**Key words:** Tutor, trajectory, form of education, individual education, diagnosis, questionnaire, systematization.

---

### **KIRISH**

So'nggi yillarda dunyoning bir qancha mamlakatlarida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yuqori malakali pedagog kadrlar tanqisligi kuzatilmogda va shu sababli katta e'tibor talab darajasidagi kadrlar tayyorlash uchun ko'plab izlanish va ta'lim berish samaradorligini oshirishga qaratildi. O'quv tarbiya jarayonlarini sifatli tashkil etish, talabalarni ko'p jihatdan motivlashtirish

hamda ularning kompetensiyalarini rivojlantirish orqali oliy ta'lim tizimi raqobatbardoshligini ta'minlash hamda sifatli kadrlar yetishtirishga erishish mumkin. Binobarin, tyutorlik dasturlari va o'quv modullari tarkibida talabalarning pedagogik hamda psixologik jihatdan chuqur o'rganish, ularni to'g'ri yo'naltirish va maqsadlarini aniq qo'yish uchun ko'maklashishga qaratilgan mavzular, materiallar va bir qator treninglarni tizimlashtirish va tadqim etish ko'zda tutiladi. Ta'limni individuallashtirish, talabaning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishning muhim yo'llaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Barchaga ma'lumki, individual ta'lim talabaning bilim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan o'qitish uslubi bo'lib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, tyutorlik faoliyatida talabalar bilan individual ishlash ularni to'g'ri va shaffof baholash hamda keng yo'nalishda ko'mak berish imkonini yaratadi.

Tyutorlik faoliyatini individual dastur sifatida ham hisoblagan olimlar mavjud. Ulardan biri A.N.Bogachevdir. U o'zining olib borgan tadqiqoti asosida shunday fikrga to'xtaladi: "Tyutorlik faoliyati – bu ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan ta'limni individuallashtirish, ta'lim motivlari va qiziqishlarining fenomeni va rivojlanishini yaratish uchun yaratilgan individual ta'lim dasturidir".<sup>1</sup> Yana boshqa olimlardan A.Maslou, F.Perlz hamda E.Shostromlarning fikricha - "Tyutorlik faoliyati ta'lim muhitida qo'llab-quvvatlovchi pozitsiya, o'z-o'zini tarbiyalash, individual ta'lim muhitini izlash va ta'lim va tarbiya madaniyati parallel ravishda shakllantiradigan kasbdir".<sup>2</sup>

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish avvalo ta'limning paradigmasini o'zgartiradi. Shu paytga qadar mavjud ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik – o'qishga o'rgatishga yo'naltirilgan. Zamonaviy tyutor kadrlar yangi mavqega ega bo'lib, uning vazifasi eng avvalo yoshlarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratilmog'i lozim. Tyutor bunday maqsadlarda, o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash kerakki, ular yoshlarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan mustaqil egallashlari, o'zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo'lishlari lozim.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu kontseptsiyaning mazmuni individualizatsiya haqida gapirganda qanday maqsadlar va vositalar nazarda tutilganiga bog'liq. Bundan tashqari, qiyinchilik "individuallashtirish" va "farqlash" kabi ikkita tushunchaning aralashishi bilan bog'liq. Shunday qilib, ba'zilar farqlashni ta'lim bilan, individuallashtirish esa ta'lim bilan, boshqalari esa farqlashni individualizatsiya shakllaridan biri deb hisoblashadi. Bir qator mualliflar farqlash tushunchasi individualizatsiya tushunchasiga bo'ysunadi, boshqalari individualizatsiya alohida farqlash holatidir, deb hisoblashadi.

---

<sup>1</sup> Tyutorskoye soprovojdenniye obrazovatelnoy deyatelnosti: uchebnoye posobiye. Praktikum / M. A. Dbyachkova, O. N. Tomsk; FGBOU VO «UrGPU». – Yekaterinburg, 2016. – 184 s.

<sup>2</sup> Osnovi tyutorstva: kurs leksiy [Elektronniy resurs]: uchebnoye posobiye dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy / N. V. Shramko; Ural. gos. ped. un-t. – Elektron. dan. – Yekaterinburg: [b. i.], 2018.

**Individual ta'lim** - tyutorning talabaga pedagogik ta'sirini amalga oshiruvchi mashg'ulot shakllaridan biri. Tyutorning talaba bilan guruh jamoasidan tashqarida olib boriladigan faoliyati tushuniladi.

Individuallashtirish - bu tamoyil asosida tyutor va o'quvchilar tomonidan individual ta'lim dasturi qurilish jarayonida hamkorlik paydo bo'ladi.(T. M. Kovaleva).<sup>3</sup> Individuallashtirish - bu uning usullari, texnikasi va sur'ati bolaning individual imkoniyatlariga, uning qobiliyatlarini rivojlantirish darajasiga mos keladigan ta'lim; talabalarning individual xususiyatlarini barcha shakl va usullarda o'qitish jarayonida qanday xususiyatlar va usullardan qat'iy nazar hisobga olish qanday darajada hisobga olinadi.

Pedagogik adabiyotlarda "individual yondashuv" tushunchasi ham uchraydi. O'qituvchilarning aksariyati individual yondashuvni zamonaviy maktab printsipli deb hisoblashadi. "Individual yondashuv" va "ta'limni individuallashtirish" tushunchalarining ta'riflariga asoslanib, individual yondashuv ta'lim printsipli va ta'limni individuallashtirish bu printsiplni amalga oshirishga qaratilgan sinf (guruh) jamoasida o'quv jarayonini maxsus tashkil etish degan xulosaga kelish mumkin. Talabalarning aqliy xususiyatlarini hisobga olish ta'limni individuallashtirishning aqliy asosi sifatida ko'riladi.

## **ASOSIY QISM**

Individuallashtirish o'quv ishlarida talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish deb hisoblanar ekan, biz individual o'quv dasturi va trayektoriyasining vazifalarini bilgan holda ularni amaliyotda qo'llashimiz mumkin. Individual o'quv dasturining vazifalari:

- ta'labalarning o'rgangan fan tadqiqotlari uslublari bo'yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlar bilan tanishganlig darajasini;
- o'qitish metodikasini tadqiq qilishning ilmiy yo'nalishlari bilishi darajasini;
- tadqiqot jarayonida pedagogning aniq vazifasini anglay olish darajasini;
- fan va tadqiqotlar sohasining ilmiy yo'nalishlari, tadqiqotlar sohasida ilmiy mushohada va ilmiy tahlil masalalarini o'zlashtira olganliklarini;
- ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish malakalarining mavjudligini;
- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari haqida umumiy tushunchalarga ega ekanligini ko'rsatib berishdan iborat.

Individual o'quv rejasi yoki trayektoriyasi asosida ixtisoslashtirilgan ta'limni tashkil etish - bu tyutor va talabaning belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir. Ushbu faoliyat quyidagi ajratib ko'rsatilgan shakllarda o'tqazilishi mumkin:

-individual, -guruhli-jamoaviy, -auditoriyadan tashqari.

---

<sup>3</sup> Tyutorstvo v obrazovani: ot issledovaniy k praktikam [Elektronniy resurs]: monografiya – El. izd. - Elektron. tekstoviye dan. (1 fayl pdf: 249 s.). - Astaxova O.V, Belan N.V, Borovkova T.I, Goncharova A.V, Goryachenko . 2020.

Tyutor talabaning individual ta'lim trayektoriyasi bo'yicha ish yuritish va uni yaratish uchun dastavval bir qator ishlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Talabani to'liq o'rganish, diagnostika qilish, qiziqishlarini bilish, ijtimoiy va psixologik holati haqida batafsil ma'lumot to'plash, kelajakdagi orzu, maqsad va rejalari bilan mukammal tanishish tyutorning ushbu trayektoriyani yaratishdagi muhim vazifalariga kiradi. Mavjud va bajarilgan ishlar sifati va samaradorligini baholab borish albatta o'z ish jarayonini tahlil qilish hamda erishilgan yutuqlar asosida kelgusi ishlar uchun motivatsiya olishda baholash me'zoni bo'lishi ahamiyatlidir. Quyida mualliflik asosidagi na'munaviy individual ta'lim trayektoriyasi hamda uning baholash me'zoni bilan qisqacha tanishishingiz mumkin.

***Talabaning individual ta'lim trayektoriyasi***

<b>Talaba haqida ma'lumot</b>			
<b>Familiyasi</b>	Muxammadjonova		
<b>Ismi</b>	Madinabonu		
<b>Sharifi</b>	Isroiljon qizi		
<b>Ta'lim yo'nalishi</b>	5111400-Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili)		
<b>O'quv yili</b>	2023-2024		
<b>Uy manzili</b>	Farg'ona viloyat Furqat tuman Shoyimbek 18		
<b>Ayni vaqtdagi turar joyi</b>	1-talabalar turar joyi		
<b>Telefon raqami</b>	90-874-18-48		
<b>Ota-onasining FISH</b>	G'aniboyev Isroiljon Maxammadjonovich G'aniboyeva Mashxuraxon G'ayratovna		
<b>Ma'sul shaxs tel.raqami</b>	91-392-64-39		
<b>Talaba bilan yil davomida bajariladigan ishlar</b>			
<b>N</b>	<b>Muddat</b>	<b>Mashg'ulot shakli</b>	<b>Bajariladigan ishlar</b>
1	Sentyabr	Online	Talaba bilan diagnostik test o'tkazish (online so'rovnoma orqali)
2	Sentyabr	Offline	Talabani qiziqishi bo'yicha IELTS kursiga yo'naltirish
3	Oktyabr	Offline	Talaba uchun belgilangan majburiy fanlardan tashqari muhim fan va mashg'ulotlarni belgilash
4	Oktyabr - May	Offline	IELTS kursi
5	Fevral - Iyul	Offline	IT kursi
6	Mart-Iyun	Offline	“Start-up loyiham” kursi
7	Oktyabr- Noyabr	Online	“Volontyorlar” kursi
8	Dekabr- Fevral	Online	“Eng yaxshi tarjimon bo'ling” tarjimonlik kursi
9	Iyun	Offline	IELTS imtihoni topshirish va darajaga ega bo'lish
10	Iyul-Avgust	Offline	O'z start-up loyahasini shakllantirish

Tyutor: \_\_\_\_\_

(Tuzuvchi:M.Muxammadjonova)

N	Mashg'ulot boshlangan muddati	Mashg'ulot tugatilgan muddati	Mashg'ulot davomida erishilgan yutuqlar	Mashg'ulot natijasi	Mashg'ulot yuzasidan talaba ko'rsatkichi (%da)	
					Avval	So'ng
1	Sentyabr					
2	Sentyabr					
3	Oktyabr					
4	Oktyabr May					
5	Fevral - Iyul					
6	Mart- Iyun					
7	Oktyabr -Noyabr					
8	Dekabr- Fevral					
9	Iyun					
10	Iyul- Avgust					
<b>Umumiy</b>						

*ing samaradorligini baholash mezonlari.*

***Eslatma:** Ushbu jadvalga berilgan muddat davomida bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozib boriladi va yil yakunida hisoblanadi. Mashg'ulot yuzasidan talaba ko'rsatkichi qismiga talabaning ushbu sohada dastlabki ko'nikmasi foizi va mashg'ulotdan so'ng ko'rsatgan ko'rsatgich miqdori yoziladi va samaradorlik aniqlanadi.*

N	Samaradorlik	Baholash haqida tushuncha
---	--------------	---------------------------

	<b>darajasi</b>	
<b>1</b>	A'lo (100%)	Agar barcha topshiriq va vazifalar o'z vaqtida bajarilgan bo'lsa, mashg'ulotlar davomida talaba ko'plab yutuq va o'zlashtirishlarni egallasa, mashg'ulot natijasi sifatida sertifikat olsa, o'z mualliflik ishlarini yo'lga qo'ysa.
<b>2</b>	Yaxshi (55-85%)	Agar barcha topshiriq va vazifalar deyarli o'z vaqtida (biro z kechikishlar bilan) bajarilgan bo'lsa, mashg'ulotlar davomida bir nechta yutuqlarga erishsa, natija sifatida sertifikatlar olsa.
<b>3</b>	Qoniqarsiz (55%dan past)	Topshiriqlarga mas'uliyatsizlik bilan yondashsa, o'z vaqtida qatnashmasa, natija va o'zlashtirishga ega bo'lmasa.

Tuzuvchi (M.Muxammadjonova)

## **XULOSA**

Individuallashtirilgan ta'lim berish orqali individual talabalar va talabalar guruhlarining faoliyat maqsadlariga va haqiqiy bilim imkoniyatlariga mos keladigan o'quv va didaktik vositalar tizimiga erishiladi, bu esa o'quvchining o'quv faoliyatini o'quv maqsadlarini hisobga olgan holda uning salohiyati darajasida ta'minlash imkonini beradi. Yuqoridagi singari talaba uchun maxsus yaratilgan individual ta'lim trayektoriyasidan foydalanish va shu asosda ish yuritish ham talabaning ta'lim olishi va o'quv faoliyati sifatini oshiradi ham tyutorning bajarayotgan ish natijasini manfaatliligi hamda tizimlilikini ko'rsatadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Osnovi tyutorstva: kurs leksiy [Elektronniy resurs]: uchebnoye posobiye dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy / N. V. Shramko; Ural. gos. ped. un-t. – Elektron. dan. – Yekaterinburg: [b. i.], 2018.
2. Tyutorskoye soprovojeniy obrazovatelnoy deyatelnosti: uchebnoye posobiye. Praktikum / M. A. Dbyachkova, O. N. Tomsk; FGBOU VO «UrGPU». – Yekaterinburg, 2016. – 184 s.
3. Tyutorstvo v obrazovani: ot issledovaniy k praktikam [Elektronniy resurs]: monografiya – El. izd. - Elektron. tekstoviye dan. (1 fayl pdf: 249 s.). - Astaxova O.V., Belan N.V., Borovkova T.I., Goncharova A.V., Goryachenko Ye.A. i dr. 2020.
4. O'rinova N.M; Muxammadjonova M.I - “Talimda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyatli jihatlari” - Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 11-son\_8-to'plam\_Dekabr-2023
5. O'rinova N,M; Muxammadjonova M.I – “Edge Hill universitetida tyutorlik tizimi xususiyatlari” – Международный научный журнал № 8(100), часть 1 «Научный Фокус» Декабря, 2023